
Yoshlar tashabbuskorligi

Barchamizga ma'lumki, koronavirus pandemiyasi tufayli umumta'lim maktablarida 2019-2020 o'quv yili onlayn darslar bilan yakunlandi. Xo'sh, ayni damlarda umumta'lim maktablarida 2020-2021 o'quv yiliga tayyorgarlik jarayoni qanday ketmoqda?

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosi Elmurodjon Abduxamidov 2020-2021 o'quv yiliga tayyorgarlik jarayonini o'rganish maqsadida Qo'shtepa tumanidagi maktablarga tashrif buyurdi.



Tashrif davomida o'quvchilarga karantin qoidalariga qat'iy rioya qilishlari haqida tushunchalar berildi. Bundan tashqari Elmurodjon Abduxamidov tomonidan o'quvchilarga gigenik vositalar, tibbiy niqoblar, qo'l sochiq hamda rang bo'yyoqlari bepul tarqatildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-09-09 11:50:51